

FRANSUZ MAQOLLARINING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASI

Otamurodova Gulzoda

Talaba, O‘zbekiston milliy universiteti

otamurodovagulzoda@gmail.com

*“Agar mendan: tilda ham mo‘jizalar bo‘ladimi?— deb so‘rasalar, men: agar bo‘lsa, tilning “mo‘jizasi“, undagi maqol, matal va idiomalardir deb javob qilgan bo‘lar edim. Chindan ham gapning qaymog‘i, shirini, olam-olam ma‘no beradigani va, shu bilan birga, tilning lo‘ndasi maqol, matallardir”¹
(G‘.Salomov)*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maqollarning fransuz va o‘zbek tilida tutgan o‘rni, ahamiyati, ularning qay darajada o‘xshashligi haqida so‘z borgan. Shuningdek bir millat maqollarining boshqa bir millat maqoli bilan qanchalik o‘xshashligi, ularning tarjima qilinishi, millatlar o‘rtasidagi milliy madaniy aloqalarni mustahkamlashda qay darajada ahamiyat kasb yuritishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: maqol, ekvivalent, muqobillik, umumiylik

АННОТАЦИЯ

В этой статье говорится о роли и значении пословиц на французском и узбекском языках, и о том, насколько они похожи. Также обсуждалось, чем пословицы одного народа похожи на пословицы другого народа, их перевод и какое значение они имеют в укреплении национально-культурных связей между народами.

Ключевые слова: пословица, эквивалент, альтернатива, общность.

ABSTRACT

This article talks about the role and importance of proverbs in French and Uzbek, and how similar they are. It was also discussed how the proverbs of one nation are similar to the proverbs of another nation, their translation, and how important they are in strengthening national cultural ties between nations.

Key words: *proverb, equivalent, alternative, generality.*

Maqol—xalq og‘zaki ijodi namunasi, muayyan shaklga ega bo‘lib, ularda insoniyatning hayotiy tajribalari, atrofdagilarga munosabati, o‘tmishi, ichki dunyosi, ichki kechinmalari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Maqollardan insonlar yillar davomida foydalanib kelishgan. Tilda maqol matallardan foydalanish har bir til leksikasining naqadar boyligining yaqqol isboti sifatida ko‘rinadi. Tilimizda paydo bo‘ladigan har bir maqol yoki matal yillar va asrlar mobaynida insonning sharoitidan, odatiy vaziyatlaridan orttirilgan bo‘ladi. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, har bir maqolning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, bundan tashqari ularni omma tomonidan jonli muloqot muhitiga olib kirish, uni ommalashtirish uzoq davr talab qiladi. Maqollarning dialoglar, asarlar yoki she‘riyatda qo‘llanilishi berilayotgan fikrga ta‘sirchanlik va hissiylik beradi. Maqol bir necha so‘z bilan ifodalangan axloqiy haqiqatni bildiradigan “Bir necha so‘z bilan tasvirlangan rang-barang ifoda” (M. Maloux, 2009: V), J.Bekon aytganidek :”Xalqning dahosi, ruhi va xarakteri uning maqollarida namoyon bo‘ladi”, deydi (Jorj Bekon). Mashhur tilshunos olim V.Mayder o‘z asarida maqolga quyidagicha ta‘rif beradi: «Maqol – bu xalqning hikmat, haqiqat, axloq va ananaviy qarashlarini metafora, sobit va esda qolarli shaklda o‘z ichiga olgan qisqa, umuman ma‘lum jumla avloddan avlodga o‘tib kelmoqda”

Maqollardan foydalanishning afzalligi shundaki, ular yordamida ma‘nolarni yanada aniqroq tushunish va ta‘kidlash oson. Qolaversa, maqol va matallarni o‘rganish orqali o‘quvchilarning o‘rganilayotgan til va adabiyotni o‘rganish jarayoni takomillashtiriladi. Ulardan tez-tez foydalanish tilning kuchli va keng tarqalishiga yordam beradi. Ma‘lum bo‘lishicha, bu maqol va matallar asrlar davomida

qo‘llanilgan bo‘lib, bu ularning uzoq umr ko‘rishiga sabab bo‘lib, bugungi kungacha o‘ziga xosligi va xususiyatlarini saqlab qolgan. Turli jamiyatlardagi odamlarning xatti-harakatlari va kundalik faoliyati majoziy nutqlarda yoqimli va kulgili tarzda tasvirlanadi. Ular nafaqat adabiyotda, balki til muloqotida ham foydalidir. Xalq maqollariga keladigan bo‘lsak, bizga ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan milliy madaniy merosimizdir. Har bir tilning o‘ziga xos idiomalari, maqollari, topishmoqlari, matallari bor. Frantsuz tilida, xuddi o‘zbek tilida bo‘lgani kabi, maqollar suhbatlarda keng qo‘llaniladi.

Jamiyatlar ichidagi ochiq madaniy farqlarga qaramay, tillardagi barcha maqollar, hatto o‘zbek va frantsuz kabi bir-biridan juda farq qiladigan maqollar ham umumiy mazmunga ega. Shuning uchun ham ularning gaplari mazmun jihatidan umumlashtiriladi: masalan, frantsuz tilida *Qui craint le danger ne doit pas aller en mer*. Bu maqolni so‘zma-so‘z tarjima qiladigan bo‘lsak *Xavfdan qo‘rqqan dengizga bormas* manosini beradi. O‘zbek tilida esa o‘zbek millatiga xos ekvivalentidan foydalanamiz ya’ni *Chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmas*. Bu yerda maqoldagi so‘zlar bir biridan tubdan farq qilsada lekin mano bir butun bog‘liqlikni tashkil etadi. Yani bu maqollardan anglashilgan holat shuki, inson tavakkal qilmasa hech narsa bo‘lmaydi. Yoki bo‘lmasa *Le chat parti, les souris dansent* maqolini oladigan bo‘lsak *mushuk yo‘q bo‘lsa, sichqonlar raqsga tushadi*. Yani mushuk bo‘lmaganda sichqonlar uchun bayram degani. Bu maqolga o‘zbekcha muqobil variant keltiradigan bo‘lsak men bunga *Sulaymon o‘ldi —devlar qutuldi* maqolini keltirgan bo‘lardim. Chunki bu maqolni etimologiyasiga qaraydigan bo‘lsak, Sulaymon alayhissalom Qur’onda nomi keltirilgan payg‘ambarlardan biri bo‘lib, rivoyatlarga ko‘ra butun insu jins, hayvonot, parranda, jamiki mavjudot tilini biladigan, ular ustidan hukmronlik qiladigan podshoh bo‘lgan. Barcha jinlar, devlar u zotdan qo‘rqishgan. Rivoyatlarda keltirilishicha, Sulaymon alayhissalom hassaga suyangan holda jon taslim qilgan, toki ularning hassasini yog‘och qurti kemirib hassa sinib ketmagunga qadar, devlar Sulaymon alayhissalomni tirik deb o‘ylab o‘z ishlarini qilishda davom etishgan. Shunday qilib Sulaymon o‘lib, devlar mehnatdan qutulgan ekan.

Yuqorida berib o‘tilgan maqollar, shakl jihatdan bir biridan farq qilsada mano mazmun jihatidan umumiylikka ega. Yana shunday maqollar borki ular fransuz va o‘zbek tilida ham shakl, ham ma’no mazmun jihatidan bir biriga o‘xshash. Ularga misol qilib quyidagi maqollarni keltirish mumkin: *les chiens aboient, la caravane passe — It hurar, karvon o‘tar*

Il n’y a que les montagnes qui ne se rencontrent jamais— Tog‘ tog‘ bilan uchrashmaydi, odam odam bilan uchrashar

Il n’y a pas de fumée sans feu —Tutunsiz olov bo‘lmas

Deyarli ko‘pchilik maqollar umumbashariy maqollar hisoblanadi ya’ni ular fransuz, o‘zbek va boshqa tillar bilan bir biriga ma’no jihatidan mos. Ba’zan qaysidir xalq maqoli ta’sirida boshqa bir xalq tilida maqol paydo bo‘lishi mumkin. Jumladan *Qui a langue, va à Rome — Til bilgan Rimga boradi*. O‘zbek tilida esa *So‘rab so‘rab Makkani topibdi* maqoli bilan bir xil holatda qo‘llasak maqsadga muvofiq. Chunki barchamizga ma’lumki qadimda Rim Yevropadagi eng mashhur ilm maskanidan biri bo‘lgan. Makka shahri esa musulmonlar uchun eng muqaddas joy hisoblanadi. Bu ikki maqolni solishtiradigan bo‘lsak, har ikkalsi ma’lum bir xalqning milliyligidan uning dunyoqarashidan kelib chiqqan. Biri ta’sirida boshqasi yuzaga kelgan.

Lekin shunday maqollar borki, bunday maqollar faqat aynan bir millatga, maqolning kelib chiqqan davriga, vaziyatiga, uning qadriyatlariga tegishlidir, uning muqobili chet tilida bo‘lmaydi, uni faqatgina mano mazmunidan kelib chiqqan holda tasviriy-tavsiflash yo‘li orqali tushuntirish mumkin, uni o‘zbek tiliga tarjima qilish, yoki fransuz tiliga tarjima qilish nihoyatda mushkul jarayon.

Shunday qilib, maqol kirib bormagan, o‘z tilida maqol yartailgan biron bir millat biron bir xalq yo‘q. Insoniyat yaralibdiki, ularning dunyoqarashi, tilning leksik boyligi oshib bormoqda. Dunyodagi har bir tilning o‘ziga xos maqol va matallari bo‘lib, ularni bilish, nutqda va yozishda qo‘llash juda muhim.

Ular, asosan asar mazmunni qisqa va ta’sirli ifodalamoqchi bo‘lganda foydalaniladi. Shuning uchun ulardan kundalik hayotda foydalanish muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanadigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. "Rus tilidan o‘zbekchaga maqol,matal idiomalarni tarjima qilish masalasiga oid"
Toshkent -1961, G‘.Salomov
2. <https://www.thoughtco.com/french-proverbs-1368709>
3. Mieder W. Proverbs: A handbook. Westport, CT: Greenwood Press, 2004.
4. <https://www.proverbes-francais.fr>